

BOSHLANG`ICH SINFLARDA GEOGRAFIYA FANINI FANLARARO BOG`LIQLIGI .

Nishonova Ziyoda Jurayevna

Toshkent viloyati Zangiota tumani 27-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Mavzuning dolzarbligi:

Biz ta`limda butunlay yangilanishni yangi jarayoniga o`tish va moslashish davrini boshdan kechirmoqdamiz, Maktabda ma`naviy va jismonan baquvvai bilimli avlodlar tarbiyalanishi kerak. Hozirgi kunda yetuk bilimli avlodni yetishtirib chiqarish uchun dolzarb muammolardan biri maktablarda eski dars o`tish qolipidan chiqib o`quvchining yuragidagi cho`g`ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib bilimdan –bilimga yetaklabolib chiqish uchun zamonaviy darslar zarur. maktabda sifat samaradorligini oshirishda dars muhim rol o`ynaydi, Chunki ilm darsidagina o`quvchi ongiga singdiriladi. Ta`lim to`g`risida ‘gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bizga eski usullardan voz kechib ta`limni qayta ko`rish imkonini bergan bo`lsa ‘‘2004-2009yillarda maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturida esa takomillashgan davlat ta`lim standartlari o`quv dasturlari har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan maktablarda zamonaviy o`quv xonalari amaliyotga joriy etish imkonini ochib berdi. Shunday ekan biz yosh avlodga ta`lim –tarbiya beruvchi pedagoglar berayotgan ta`lim mazmunini chuqur o`rganib har bir fanni boshqa fanga boshlang`ich sinflarda yoq bog`lab o`tsak ,yuqori sinfga o`tganda o`ziga tanish bo`lgan mavzu va terminlar orqali yangi fanlarni onsonroq tushunib o`zlashtirib tahlil qila oladi .Ayniqsa ijtimoiy fanlar qatoriga kiruvchi geografiya har bir fan bilan uzviy bog`liqligini o`rganamiz. Xech qaysi fan geografiyadek go`zallikka, maroqlilikka ko`rgazmalikka muhtoj emas.... Baranskiy

Buyuk sayyoh olimlarning kashfiyoti bu

Yer kurrasini madh etguvchi kuy bayoti bu

Zamindagi mavjudotlar hur hayoti bu

Sayyoramiz siyrati -geografiya bu,

Boshlang`ich sinflarda geografiya fani har bir fan tarkibida uchraydi .Eng avvalo atrofimizdagi olam, tabiat fani - geografiya fani asosidir. Masalan boshlang`ich sinflarda fanlarni o`qitish jarayonida, har bir fan mavzusida geografiya va iqtisodiy bilim asoslari berib boriladi. O`qish fanini bir qator mavzularida oy ,quyosh, yer, gullar o`simliklar daraxtlar to`g`risida sherlar, ertaklar , hikoyalar uchraydi .Jismoniy tarbiya darsida ‘‘ oquvchilarni kun tartibi’’ Jahon sportchilari biln tanishishda , vaqt oralig`i o`quvchilarga tushuntiriladi . Jahonning qaysi davlatida olimpiya o`yinlari, Respublika bo`yicha yugurish marafonida hududiy chegaralar , o`quvchilar yoshiga mos ravishda tushuntirib beriladi . Shu tarzda geografik bilimlar jismoniy tarbiya darsida be vosita o`rgatib boriladi Tehnologiya darslarida har hil gullar parranda va jonivorlar shaklini yasash va boshqa turli qo`l ishlarni bajarish jarayonida atrof tabiatdagi maktab bog`lari va parklarga ekskursiya uyushtiriladi . Shu asnoda tehnologiya fani bevosita geografiya fani bilan bog`lanib ketadi Musiqa fanida 2-sinf darsligida takrorlash mavzusida ‘‘ Qanday tovushlarni bilasiz’’ mavzusida shovqinli to`vishlarga misol qilib shamol , momaqaldiraq, jala soatning chiqillashi ,navro`z bayram o`yinlari geografik bilimning bir bo`lagi hisoblanadi. Ona tili darslarida rasmga qarab tabiat hodisalar nomini aytish , oy ,quyosh , yulduzlar , atrof olam to`g`risida topishmoq, tez aytishlar aytib yoddan yozish, diktantlarda O`zbekiston qizil kitobiga kirgan o`simlik va hayvonlar to`g`risida ma`lumot olish geografik bilimlar debochasidir Demak geografiya fani har bir predmet tarkibida uchraydi va ketma ketlikda o`quvchi ongiga singdiriladi. Matematika fanida uzunlik o`lchovi birliklari shahar qishloq orasidagi masofa, Soat minut to`grisdagi misol masalalar, taqqoslashlar shularning barchasi geografiya fani bilan bog`liq hisoblanadi Boshlang`ich sinflarda tabiatshunoslik kursi bo`yicha olinadigan bilim ko`nikma – malakalar materiklar va okeanlar, O`zbekiston tabiiy geografialarni o`rganish uchun tayanch vazifalarni o`taydi Boshlang`ich maktabda tabiat kursida o`quvchilar geografik

muhitni asosiy qonunlari bilan qisman tanishadilar .Ularning bu bilimlari yerimiz ayrim hududlarining tabiiy hususiyatlarini o`rganishda va ular Boshlangich tabiiy geografiya kursida o`quvchilar joyda mo`ljal olish, kartalar bilan ishlash kartalarning turlari ularning shartli belgilarini o`qish bo`yicha yetarli bilimga ega bo`lsagina 7-8 sinflarda o`rganiladigan kartalarni puhta bilib olishga zamin yaratadi. Jahon tajribasida 3 bosqichli ta`lim asosiy hisoblanadi, yani boshlang`ich maktab ,5-9 sinf ,9-11 –sinf bosqichlariga bo`linadi.Rivojlangan davlatlarda geografiyani o`qitilishi 3 guruhda olib boriladi,;Birinchiguruhga kiruvchi mamlakatlarda geografiya ta`limi asosiy tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslaridan shahar va qishloq joylardagi barcha mamlakatlarda yagona o`quv rejasi asosida o`tkaziladi 2-guruh mamlakarlarida geografiya bilimlari maxsus fanlar tarzida emas , balki intigratsiya (birikma) tarzida bo`lib boshqa fanlar kurslar tarkibiga qo`shilib ketgan. Bunda geografiyani chuqur o`rganishni hohlovchilar maxsus fakultativ mashg`ulotlar orqaligina o`z biimlarini oshirishlri mumkin. Shu tufayli ham bu guruh uchun yagona davlat rejasi yo`q. Har bir o`qituvchi o`z maktabiga mos holatda reja tuzishi mumkin . 3-guruh mamlakatlarida geografiya majburiy o`rganiladigan fanlar qatoriga kirmaydi va uni fakultativ o`rganish orqali ta`lim olinadFransiya maktablarida geografiya fanini o`qitish bir muncha yaxshi yo`lga qo`yilgan . Fransiyada geografiya fani bosqichli maktablarga mo`ljalangan . Shunisi qiziqarliki Fransiyada sinflar teskari hisoblar bilan yuritiladi.I bosqich, maktab VI V IV III oliy ma`lumot olishga tayyorg`lik faqat litselarda amalga oshiriladiII bosqich, II I va bitiruvchi sinflardan iborat 2-sinfda geografiya dasturi 6-5-4-3 sinflarda olgan bilim va ko`nikmalar bilan chuqurlashtirladi Germaniya maktablarida daslabki geografik bilimlar bilan tanishish III-IV sinf chunki u sinflarda vatanshunoslik fani o`rganiladi .O`zbekiston Respublikasida geografiya fanini o`qitish majburiy hisoblanib , geografiya fani 5-9 sinf tabiiy geografiya 9-10-11 inf iqtisodiy bilimasoslari o`rganiladi. Geografiya o`qitish uslubiyati geografiya , didaktika va pedagogika, fanlar bilan chanbarchas bog`liq . bu bog`liqlik quydagilarda namoyon bo`lad: -geografiya fani maktab geografiyasi asosini tashkil qildi va uni rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Maktab geografiyasi 2 qismdan: tabiiy va iqtisodiy geografiyadan hamda fakultativ kurslardan iborat. O`quv vositalari va ular bilan ishlash usulari geografiya fanida qo`lanadigan usul bilan aniqlanadi .(Xaritalar bilan ishlash va o`quv sayoha tlarida aks etadi . Geografiya fani ekalogiya fani bilan chanbarchas bog`liq.Chunki hozirgi paytda maktab geografiyasida ekalogik tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda . Didaktika hamma o`quv predmetlarini usluviyotini umumiy ilmiy asosini tashkil qiladi . Geografiya ta`limi didaktika fani tamonidan asoslab berilgan qonuniyatlar , qonunlar va qoidalar asosida rivojlanadi .Didaktika geografiya o`qitish jarayoninig tarkibiy qismlari o`rtasidagi qonuniy bog`lanish va munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o`qitishning maqsadi mazmuni va usulari o`qitish jarayonini jihozlashga doir talablarini belgilab beradi. O`qitish uslubiyoti fani didaktikaga suyanibgina qolmasdan balki uning rivojlanishi uchun muhim ma`lumotlar beradi masalano`quvchilarning geografik bilim ko`nikmalarni shakillantirish va boshqalar boshlang`ch sinflarda tabiatshunoslik kursi bo`yicha olinadigan bilim ko`nikma – malakalar aksariyat bilimlar voqea va hodisalar bevosita o`quvchini o`rab turgan muhitda mavjud o`quvchilar ularga har qadamda duch keladilar . Ular tabiatda bo`layodgan o`zgarishlarni ularning sabab oqibatlarini doimo his qiladilar. Bizni o`rab turgan barcha narsalarning tabiat qonunlari asosida rivojlaninshi, ularni inson bilish qobiliyatiga ega eligini his qiladilar , Tabiat hodisalarini , ularni sabab va oqibatlarini tabiatdagi barcha narsa bir biri bilan uzviy bog`liq ekanligini ularni tabiat qonunlari asosida rivojlanishini aniq misollarda o`rganadilar . Inson xo`jalik faoliyatining tabiiy sharoiti va resurslar bilan aloqadorligini ularga xo`jalik nuqtai nazaridan baho berish yo`larini mahalliy misollar yordamida bilish imkoniyatida ega bo`ladilar . Turli hil xududlarning o`ziga xos tabiiy sharoitiga ega ekanligini o`z olkasi misolida o`rganadilar. Mamlkarimizning mahalliy tabiat ko`mpilekslari bilan batafsil tanishtirish ularni qiyoslay olishga o`rgatish TK hilma hilligini sabablarini aniqlashga yordan beradiXulosa qilib shuni aytish keraki O`zbekiston Respublikasida geografiya fanini o`qitilishi fanlar kesimida mukammal taizda uzviy bog`lab boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. P .Qurbonniyozov Qiziqarli geografiya Toshkent .1985 yil
2. P G`ulomov ,Baratov,Vahobov 7- sinf geografiya\
3. Arxiv .UZ